XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-iyun VI-62-92-1-0-K/24 Andijon viloyati

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-son qarori bilan suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali aholi ongida shakllangan “suv-tekin” tushunchasidan voz kechish hamda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi ““Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarori asos va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabrdagi VI-57-255-1-0-K/23-sonli qarorining 4-ilovasi bilan tasdiqlangan 2024-yil umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlardan shaharlar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yorida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno) tushumlari to‘liq hajmda shaharlar va tumanlar mahalliy byudjetlariga taqsimlanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini moliyaviy ta’minlash maqsadida, 2024-yil uchun suv solig‘ining prognoz qilingan summasini 40 foizga oshirilishi hisobiga tuman (shahar)lar mahalliy byudjetining 2024-yil uchun

belgilangan daromadlari va xarajatlari miqdori 1-ilovaga muvofiq teng miqdorlarda oshirilsin.

Bunda, ushbu prognoz koʻrsatkichini oshirilishida qishloq xoʻjaligi korxonalari uchun yil davomida suv yetkazib berish hajmini oshirilishi koʻzda tutilganligi inobatga olinsin.

Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabrdagi VI-57-255-1-0-K/23-sonli qarorining 5-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilsin.

4. Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (D.Isomiddinov), Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (X.Xamidov), viloyat Gʻaznachilik xizmati boshqarmasi (A.Toʻraqulov) qishloq xoʻjaligi korxonalarining suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq toʻlovidan tuman (shahar)lar mahalliy byudjetiga haqiqatda kelib tushgan mablagʻlarni 40 foizini har oy yakuni boʻyicha belgilangan muddatlarda tegishli hududlar “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalarining byudjetdan tashqari gʻazna hisob varagʻiga oʻtkazib borilishini taʼminlasin.

5. Tuman (shahar)lar hokimliklari, mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq 2024-yilgi tasdiqlangan mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini suv soligʻining prognoz qilingan summasini 40 foizga teng miqdorda oshirish yuzasidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga taklif kiritish va tegishli qaror qabul qilinishini taʼminlasin.

6. Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (D.Isomiddinov), Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (X.Xamidov) Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini moliyalashtirish, bunda suv soligʻining haqiqatda kelib tushgan tushumlaridan kelib chiqqan holda hamda suv soligʻi tushumi past boʻlgan tuman (shahar)larda suv yetkazib berish xizmatlari xodimlari ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlarni amalga oshirish uchun yetishmaydigan mablagʻlarni, irrigatsiya boʻlimlarini saqlash xarajatlari uchun mahalliy byudjetlarda ajratilgan mablagʻlarni tuman (shahar)lar byudjetlari oʻrtasida qayta taqsimlash boʻyicha xarajatlar smetasiga tegishli oʻzgartirishlar kiritib borsin.

7. Andijon viloyati soliq boshqarmasi (L.Qurbonov), Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (X.Xamidov) tegishli tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda, qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlarni sugʻorish va baliqlarni yetishtirish (oʻstirish) uchun foydalanilgan suv hajmi, shu jumladan, dehqon xoʻjaliklari va qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlarga ega boʻlgan yuridik va jismoniy shaxslardan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq toʻlovlarini belgilangan muddatlarda undirish choralarini koʻrsin.

8. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Andijon viloyati boshqarmasi (F.Tolipov) “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalariga ajratilgan mablagʻlarni maqsadli sarflanishi ustidan tizimli ravishda nazorat oʻrnatsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (M.Abdilazizov) hamda viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari D.Karimov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



ABDURAXMANOV
SHUXRATBEK
KUSHAQBAYEVICH

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 29-iyundagi
VI-62-92-1-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.02.2024-yildagi 79-son qaroriga asosan "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari faoliyatini moliyaviy taʼminlash maqsadida suv soligʻining prognoz qilingan summasini 40 foizga oshirilishi hisobiga tuman (shahar)lar mahalliy byudjetining 2024-yil uchun belgilangan daromadlari va xarajatlari miqdoriga kiritilayotgan oʻzgartirishlar

T/R	Hududlar nomi	Daromadlar (ming soʻm)			Xarajatlar* (ming soʻm)
		2024-yil uchun tasdiqlangan mahalliy byudjet daromadlari tarkibidagi suv soligʻi prognozi	**oshirilgan prognoz miqdori (40 foiz)**	**2024-yil uchun aniqlash-tirilgan prognoz**	**Hududiy "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari faoliyatini moliyalashtirish xarajatlari**
	JAMI	**61 462 000**	**22 449 600**	**83 911 600**	**22 449 600**
1	Xonobod shahar	667 000	0	667 000	
2	Andijon shahar	4 671 000	0	4 671 000	
3	Andijon tumani	2 728 000	1 091 200	3 819 200	1 091 200
4	Baliqchi tumani.	4 673 000	1 869 200	6 542 200	1 869 200
5	Boʻston tumani	2 790 000	1 116 000	3 906 000	1 116 000
6	Buloqboshi tumani	2 419 000	967 600	3 386 600	967 600
7	Jalaquduq tumani	4 709 000	1 883 600	6 592 600	1 883 600
8	Izboskan tumani	3 472 000	1 388 800	4 860 800	1 388 800
9	Ulugʻnor tumani	5 174 000	2 069 600	7 243 600	2 069 600
10	Qoʻrgʻontepa tumani	6 595 000	2 638 000	9 233 000	2 638 000
11	Asaka tumani	4 513 000	1 805 200	6 318 200	1 805 200
12	Marhamat tumani	4 306 000	1 722 400	6 028 400	1 722 400
13	Oltinkoʻl tumani	3 219 000	1 287 600	4 506 600	1 287 600
14	Shahrixon tumani	3 312 000	1 324 800	4 636 800	1 324 800
15	Paxtaobod tumani	5 677 000	2 270 800	7 947 800	2 270 800
16	Xoʻjaobod tumani	2 537 000	1 014 800	3 551 800	1 014 800

*Izoh: *) Bunda tumanlardagi "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari hududiy byudjet mablag‘i taqsimlovchilari hisoblanadi*

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 29-iyundagi
VI-62-92-1-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming soʻmda

№	Hududlar nomi	Daromadlar*	Xarajatlar
	JAMI	**1 297 096 350,0**	**3 450 423 932,0**
1	Xonobod shahri	27 318 600,0	87 407 614,0
2	Andijon shahri	319 127 400,0	425 317 658,0
3	Andijon tumani	92 221 950,0	240 163 934,0
4	Baliqchi tumani	66 842 200,0	213 217 677,0
5	Boʻston tumani	26 943 250,0	131 999 559,0
6	Buloqboshi tumani	46 090 100,0	170 608 572,0
7	Jalaquduq tumani	56 128 850,0	206 590 351,0
8	Izboskan tumani	63 872 800,0	237 704 126,0
9	Ulugʻnor tumani	28 853 350,0	114 840 118,0
10	Qoʻrgʻontepa tumani	90 158 250,0	246 314 650,0
11	Asaka tumani	157 364 950,0	294 185 730,0
12	Marhamat tumani	55 428 400,0	200 564 772,0
13	Oltinkoʻl tumani	58 522 100,0	200 076 550,0
14	Shahrixon tumani	84 316 050,0	277 815 964,0
15	Paxtaobod tumani	57 215 050,0	256 610 580,0
16	Xoʻjaobod tumani	66 693 050,0	147 006 077,0

** tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz soligʻi boʻyicha transfertlarni inobatga olmagan holda*